



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№4(5)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 224 sahifa,
27-aprel, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Формирование здоровьесберегающей образовательной среды в начальной школе в условиях инклюзии.....	10
<i>Тургунова Нилуфар Абдусаломовна</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tez va aniq hisoblash ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	16
<i>Dehqonova Maxliyoxon Shuhratjon, Musinjonova Dildoraxon Mahmudjon</i>	
Научно-педагогический анализ методов математического моделирования: численные и аналитические подходы в обучении студентов	19
<i>Мусурмонова Маъмура Оман кизи, Жураева Феруза Бахтиёр кизи, Сарсенбаева Мархабо Шадибековна</i>	
Inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy moslashuvini rivojlantirish texnologiyasi.....	26
<i>Turdimurodova Muazzam Muzaffarbek qizi</i>	
M. Tvenning "Tom Soyerning boshidan kechirganlari" romanida bolalar obrazining tasviri masalasi	29
<i>Sattarov Farrux Nuridinovich</i>	
Pedagogik dasturiy vositalar yordamida dars sifatini oshirish	35
<i>D. K. Ibadullayev</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning kasbga qiziqishlarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati	41
<i>Isabekova Dilafuz Shermirzayevna</i>	
Молодёжь Узбекистана в системе политических процессов.....	46
<i>Юсупова Элеонора Фердинандовна</i>	
Математика o'qitishda zamonaviy yondashuvlar: vaziyatli tahlil va amaliy samaradorlik	51
<i>Matyaqubova Nazira Hikmat qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini sun'iy intellekt texnologiyalari asosida rivojlantirishning metodik modeli.....	54
<i>Choriyev Olmosbek Baxriddin o'g'li</i>	
Fan va tilni integratsiyalashgan holda o'qitish (CLIL)	60
<i>M. D. Boynazarova</i>	
Оптимизация показателей сердечного цикла у спортсменов при хроническом физическом перенапряжении посредством фармакологической поддержки	63
<i>Нормуратов Абдулла Саппарович</i>	
Chidamlilikka yo'naltirilgan sport turlarida uglevod va energiya almashinuvini farmakologik korreksiyasi....	67
<i>Normuratov Abdulla Sapparovich</i>	
O'quvchilarga dutor ijrochiligini o'rgatishning pedagogik yondashuvlari	70
<i>Sa'dullayev Og'abek Abdurashid o'g'li, Nazirullayeva Nodira Akmal qizi</i>	
Bolalar musiqa va san'at maktablarida individual va jamoa mashg'ulotlarini tashkil etish mexanizmlari (cholg'u ijrochiligi misolida).....	74
<i>Omonova Charos Baxodir qizi</i>	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining o'quv-biluv faoliyatini motivatsiyalashda interfaol metodlardan foydalanish.....	79
<i>Saidova Zulfizar Norbobo qizi</i>	
O'qituvchining kognitiv egizagi (Digital Twin): sun'iy intellekt yordamida individual pedagogik uslubni modellashtirish.....	83
<i>Kuchkarova Feruza Qambaraliyevna</i>	
Abdusamad Boboxo'jayev rahbarligida tarix va arxeologiya institutining rivoji: 1964-yilgi arxiv hujjati misolida	91
<i>Abdullayev Botir Jabbor o'g'li</i>	
Maktab o'quvchilarining musiqiy idrokni shakllantirishning ijtimoiy va didaktik zarurati.....	93
<i>Abdumannan Maxammatov</i>	



“Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kalokagatiyani rivojlantirishning KAMOL modeli asosidagi pedagogik texnologiyasi”	97
<i>Abdurahmonova Dilorom Jovliyevna</i>	
Morphological Structure and Word Formation of Ecotourism Terminology: A Cross-Linguistic Analysis With Reference to the Uzbek Language.....	104
<i>Absamatova Charos</i>	
Fizika fanini o'tmda o'qitishda masalalar yechishning ilmiy-metodik ahamiyati	107
<i>Akmal Mustafoyev Isaqulovich, Munajat Mustafoyeva Oltibekovna</i>	
Kasbiy yo'naltirilgan ingliz tili darslarida metakognitiv strategiyalar asosida akademik nutqni rivojlantirish ..	111
<i>Allamuratov G'ofur Ashurovich</i>	
Maktabgacha ta'limda bolalarning mayda qo'l motorikasini rivojlantirish metodikasi	116
<i>Amanova Albina Dexqon qizi</i>	
Psychological Approaches in Teaching English in Preschool Education and their Effectiveness	120
<i>Berdiqulova Zamira Albertovna</i>	
The Role of Family, Education, and Community Systems in Shaping Individual Psychological Well-Being .	124
<i>Diibar Abdullayeva Ubaydullayevna, Iroda Panjiyeva Khayitovna</i>	
Nomoddiy madaniy merosning talaba-yoshlarni yuksak ma'naviyatli shaxs sifatida tarbiyalashdagi ahamiyati	127
<i>Erboyev Suxrob Abdusalomovich</i>	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida inson resurslarini boshqarishda muvozanatlashgan ko'rsatkichlar tizimidan foydalanishning nazariy asoslari	131
<i>Gulmira Jumanova</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'stirishda badiiy adabiyotning dolzarbligi	135
<i>Hasanova X. Z.</i>	
Gospital ta'lim sharoitida ona tili fanini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi	139
<i>Hikmatov Bobobek Saydulloyevich</i>	
ASB bo'lgan bolalarda sensor buzilishlarning kognitiv va ijtimoiy rivojlanishga ta'siri	142
<i>Isaxanova Oybarchin Abduraxim qizi</i>	
Maktabgacha ta'limda kommunikativ faoliyat samaradorligining pedagogik mexanizmlari	146
<i>Maxmutazimova Yulduz Raxmatovna</i>	
David haykali ko'z bo'lagining qalamtasvirini bajarish usullari.....	149
<i>Mo'minov Baxtiyor Karamatovich</i>	
Ta'limda fanlararo integratsiyadan foydalanishning pedagogik va psixologik asoslari	154
<i>Oblakulova Nodira Abduvali qizi</i>	
Ellipslarni tasviriy san'at va muhandislik grafikasida yasash metodikasi.....	160
<i>Sheraliyev Sanjarbek Karimberdiyevich</i>	
Kommunikativ strategiyaning yuzaga kelish omillari	170
<i>Normaxmatova Feruza Ruziboyevna</i>	
Umumta'lim maktab musiqa madaniyati darslarida raqamli texnologiyalardan foydalanish muammo va yechimlari	174
<i>O'rishboyeva Xumora O'rol qizi</i>	
Maktabda jismoniy tarbiya darslarida futbol elementlaridan foydalanib 10-11 yoshli bolalarda tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirish uslubiyati	177
<i>Qurbonbayeva Maftuna G'ayrat qizi</i>	
Maktabda darsdan tashqari futbol to'garaklarida o'quvchilarning tezkor-kuch qobiliyatlarini takomillashtirish	182
<i>Ro'ziboyeva Fotima Quدرات qizi</i>	
Matn ustida ishlash samaradorligini baholash mezonlari	187
<i>Sadarova Nilufar</i>	
Neyroestetik stimulning yosh dinamikasidagi roli: kognitiv emotsional sferani qayta tashkil etish mexanizmlari.....	193
<i>Salaxidinova Xolida Xaliljonovna</i>	

Kasbiy ta'limda o'quvchilarning psixologik va axloqiy sifatlari	198
Salomov Abdurasul Axmadovich	
Funksiyaning hosilasi yordamida o'sish va kamayish oraliqlarini aniqlash metodikasi	201
Sherzad Eshjanovich Bekchanov, Shohida Sadullaevna Ziyadullaeva, Abdusalom A. Xudoyberdiev	
Bo'lajak tarbiyachilarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishda psixologik treninglarning nazariy va amaliy asoslari.....	205
Sojida Safarova Saxadin qizi	
Destruktiv xulq-atvor psixologik va pedagogik qarovsizlik oqibati sifatida.....	207
Umirzoqova Shodiya Lutfullo qizi	
Maktabgacha ta'limda bolalar bilan innovatsion texnologiyalar yordamida ekologik omillarni singdirish	210
Xoldorova Mashxura G'ulomovna	
Роль антиоксидантной системы в повышении работоспособности спортсменов	214
Нурбаев Бахтиёр Широнович	
Shaxs irodaviy sohasini rivojlantirishning psixologik determinantlari.....	217
To'ychiyeva Shoyista Jumabayevna	

O'QUVCHILARGA DUTOR IJROCHILIGINI O'RGATISHNING PEDAGOGIK YONDASHUVLARI

Sa'dullayev Og'abek Abdurashid o'g'li

Samarqand davlat pedagogika instituti 1-bosqich magistranti

Nazirullayeva Nodira Akmal qizi

Samarqand davlat pedagogika instituti 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Dutor cholg'usi va uni o'quvchilarga o'rgatish jarayonining pedagogik asoslari, metodik yondashuvlari hamda samarali o'qitish texnologiyalari tahlil etiladi. O'qitish jarayonida yosh xususiyatlari, individual qobiliyatlar va musiqiy idrokni rivojlantirish omillarining ahamiyati asoslab beriladi. Shuningdek, an'anaviy va zamonaviy pedagogik uslublar integratsiyasi orqali o'quvchilarda ijrochilik mahoratini shakllantirish, ularning estetik didi va ijodiy tafakkurini rivojlantirish masalalari yoritiladi.

Kalit so'zlar: dutor, ijrochilik, o'quvchi, pedagogik yondashuvlar, metodik yondashuvlar, musiqiy idrok, an'anaviy uslub, zamonaviy uslub, integratsiya.

Abstract: The dutar musical instrument and the pedagogical foundations of teaching its performance to students are analyzed, including methodological approaches and effective instructional technologies. The importance of considering age characteristics, individual abilities, and factors influencing the development of musical perception in the teaching process is substantiated. Furthermore, the integration of traditional and modern pedagogical methods in developing students' performance skills, aesthetic taste, and creative thinking is discussed.

Key words: dutar, performance, student, pedagogical approaches, methodological approaches, musical perception, traditional methods, modern methods, integration.

Аннотация: Рассматриваются музыкальный инструмент дутар и педагогические основы обучения учащихся исполнителю на нём, включая методические подходы и эффективные образовательные технологии. Обосновывается значение учета возрастных особенностей, индивидуальных способностей и факторов развития музыкального восприятия в процессе обучения. Также освещаются вопросы формирования исполнительского мастерства, эстетического вкуса и творческого мышления учащихся на основе интеграции традиционных и современных педагогических методов.

Ключевые слова: дутар, исполнительство, учащийся, педагогические подходы, методические подходы, музыкальное восприятие, традиционные методы, современные методы, интеграция.

KIRISH

Hozirgi kunda musiqa ta'limi tizimini takomillashtirish, milliy cholg'u asboblari o'rganish va targ'ib etish dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Xususan, o'zbek xalq cholg'ulari orasida dutor alohida o'rin egallab, uning ijrochilik an'analari yosh avlodni estetik ruhda tarbiyalashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu bois o'quvchilarga dutor ijrochiligini samarali o'rgatish, ularda musiqiy savodxonlik, ijrochilik ko'nikmalari hamda ijodiy tafakkurni rivojlantirish zamonaviy pedagogika oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Davlatimiz hukumati tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, musiqiy ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan qarorlar hamda farmoyishlar mamlakatimizda o'sib kelayotgan yosh avlodlarning ma'naviy olami va saviyasini yuksaltirish, yoshlarning jahon va o'zbek milliy musiqa madaniyatining yuksak namunalari keng bahramand bo'lishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, shu asosda musiqiy ta'limni yanada rivojlantirish hamda kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish bo'yicha amalga oshiriladigan vazifalarni belgilab beradi. Musiqa san'ati sohasida olib borilayotgan ezgu ishlar yoshlarning kuy va qo'shiq, san'atga mehrini uyg'otib, ularda cholg'u asboblari chalish va ijro mahorati kabi zarur bilim hamda ko'nikmalarni shakllantiradi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-112-son¹ qarorida o'quvchilarga nafaqat

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-112-son qarori: <https://lex.uz/uz/docs/-5849580>



bolalar musiqa va san'at maktablarida, balki umumta'lim maktablarida ham o'zbek xalq cholg'ulariga bo'lgan e'tiborni kuchaytirish, o'quvchilarga 7 turli musiqiy cholg'udan birida ijro etishni o'rgatish bo'yicha yangi ta'lim metodlari va pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqish vazifalari belgilangan^[1].

Dutor cholg'usi o'zbek xalqining eng qadimiy va nafis milliy torli cholg'ularidan biri bo'lib, Markaziy Osiyo musiqa madaniyatida alohida o'rin tutadi. Dutor ijrochiligini o'rgatish jarayoni murakkab didaktik tizimni tashkil etib, u nafaqat texnik ko'nikmalarni shakllantirishni, balki musiqiy eshituv, ritmni his etish, badiiy ifodani anglash kabi ko'plab kompetensiyalarni rivojlantirishni talab etadi. Mazkur jarayonda o'qitishning samarali metodlarini tanlash, o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish, shuningdek, innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quvchilarga dutor ijrochiligini o'rgatishning samarali pedagogik yondashuvlarini aniqlash va ularni amaliyotga joriy etish bo'yicha ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot davomida tahlil, kuzatuv va umumlashtirish metodlaridan foydalanilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Dutor ijrochiligini o'qitish masalalari o'zbek musiqa pedagogikasida alohida yo'nalish sifatida shakllangan bo'lib, bu borada G. Muhammedovning 2014-yilda chop etilgan o'quv-uslubiy qo'llanmasida dutor cholg'usini o'rganishning boshlang'ich bosqichlari, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda mashg'ulotlarni tashkil etish usullari batafsil yoritilgan. I. Toshpo'latova 2018-yilda nashr etilgan asarida an'anaviy ijrochilik maktabining nazariy asoslari, ustoz-shogird tizimining o'rni hamda milliy ijro uslublarining shakllanish jarayonini ilmiy jihatdan tahlil qiladi. Ushbu tadqiqotlar dutor ijrochiligini o'rgatishda milliylik va an'anaviylikni saqlash zarurligini asoslaydi.

Zamonaviy yondashuvlar nuqtayi nazaridan U. Yunusovning 2021-yildagi ishlari xalq cholg'ularida ijrochilikni rivojlantirishda metodik tizimning ahamiyatini ochib beradi.

M. Ziyayeva tadqiqotlarida F. Sodiqov ijro maktabi misolida individual ijrochilik uslublari va ularning pedagogik ahamiyati tahlil qilinadi.

A. Tashmatova esa ijrochilik san'ati tarixini o'rganish orqali musiqa ta'limida tarixiylik va izchillik tamoyillarining muhimligini ko'rsatadi. Mazkur ilmiy ishlarda dutor ijrochiligini o'rgatishda nazariy bilimlar va amaliy mashg'ulotlarning o'zaro uyg'unligi alohida ta'kidlanadi.

Pedagogik nuqtayi nazardan D. Soipovning 2009-yildagi tadqiqotlarida musiqa o'qitish metodikasi umumiy didaktik tamoyillar asosida yoritilib, individual yondashuv va integratsion metodlarning samaradorligi asoslab berilgan.

N. Nazirullayevaning maqolasida an'anaviy va zamonaviy metodlar integratsiyasi orqali o'quvchilarda ijrochilik ko'nikmalarini shakllantirish masalalari ko'rib chiqiladi.

Shu bilan birga, normativ-huquqiy hujjatlar, xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-112-son² qarorida musiqa ta'limini rivojlantirish bo'yicha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilab beradi. Umuman olganda, mavjud adabiyotlar dutor ijrochiligini o'rgatishda integratsiyalashgan pedagogik yondashuvlar, individual yondashuv va milliy an'analarga tayanish zarurligini ko'rsatadi.

TADDIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida ma'lumotlar ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, pedagogik kuzatuv, suhbat va amaliy mashg'ulot natijalarini o'rganish orqali to'plandi. Dutor ijrochiligini o'rgatish bo'yicha mavjud metodik qo'llanmalar va ilg'or pedagogik tajribalar qiyosiy tahlil qilindi. Shuningdek, o'quvchilarning ijrochilik ko'nikmalari dars jarayonidagi faoliyati asosida kuzatilib, ularning individual xususiyatlari va rivojlanish dinamikasi aniqlashtirildi. Olingan ma'lumotlar tizimlashtirish, taqqoslash va umumlashtirish metodlari yordamida qayta ishlanib, an'anaviy va zamonaviy yondashuvlarning samaradorligi baholandi. Natijalar asosida dutor ijrochiligini o'qitishda optimal pedagogik usullarni aniqlash imkoniyati yaratildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi kunda o'zbek xalq cholg'ulariga bo'lgan e'tibor kuchaygani sari pedagoglarimiz uchun mas'uliyat ham ortib bormoqda. Musiqiy ta'lim jarayonida individual yondashuvning o'rni katta. Har bir o'quvchining musiqiy qobiliyatlarini, uning ijroviy imkoniyatlarini o'rgangan holda unga ta'lim berish, o'quvchiga qiyin bo'lmagan holatda ijroni o'rgatish, albatta, malakali pedagogning vazifasi hisoblanadi. Masalan, bolalar musiqa va san'at

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-112-son qarori:

maktabiga yangi tanishuv uchun kelgan o'quvchi hali san'at maktabining muhiti talab darajasidan bexabar holda keladi. O'z istaklariga qarab yo'nalishni tanlaydi, keyingi bosqichlar esa o'qituvchining pedagogik mahoratidan kelib chiqib olib boriladi. Dars jarayonining boshidan har bir o'qituvchi o'zining mutaxassisligi bo'yicha cholg'u tarixiga bir nazar tashlab, mohir sozandalar, bastakorlar va cholg'u yasovchi ustalarning hayoti va ijodi haqida bilib, ularni kelajak avlodga tanishtirib bera olishi kerak. Bunga qo'shimcha tarzda bolalarga tanish bo'lgan xalq kuyi yoki asarni ijro etib, ularni cholg'uga qiziqtirish har bir o'qituvchining asosiy vazifasidan biridir.

O'quvchiga cholg'u sozini o'rgatishda boshqa fanlar bilan integratsiya qilib, bolaga qiziqarli va mazmunli dars jarayonini tashkil etish lozim. Masalan, dutor cholg'usi ijrosida ikki qo'l harakatlari alohida vazifa bajaradi, bunda jismoniy harakatlar va qo'l mashqlari bilan integratsiya qilish mumkin. Aslida, integratsiya nima? Integratsiya atamasi (lotincha integratio – tiklash, butun, bog'liqlik) ta'limda fanlarning o'zaro yaqinlashishi, bir-birini to'ldirishi va uyg'unlikda o'qitilishini anglatadi. Musiqa ta'limida ham ko'plab fanlar bilan integratsiya qilish mumkin. Masalan, musiqa fanini matematika, adabiyot, jismoniy tarbiya va fizika fanlari bilan integratsiyalash mumkin [8].

Bolalar musiqa va san'at maktabida dutor cholg'usi bo'yicha o'quv dasturi besh yillik o'qishga mo'ljallangan bo'lib, bu davr mobaynida o'quvchi imkon qadar musiqa ijrochiligining professional mahoratini egallashi va notaga qarab ijro etish malakasini shakllantirishi zarur. "Dutor" so'zi fors-tojik tilidan olingan bo'lib, "du" – ikki, "tor" – sim, ya'ni ikki tor degan ma'noni bildiradi. Dutor cholg'usining o'ziga xosligi uning ovoz jozibadorligi va ijro mahoratidagi nozikligi bilan ajralib turadi [2].

Shunga ko'ra, dutor sinfi o'qituvchisi o'quvchiga dutor chalishni o'rgatishdan avval dutorning tuzilishi, qismlari, ulardan foydalanish, torlarining nomi va sozlanishi haqida tushuncha beradi; dutorda ijro holati fundamental vazifasini bajaruvchi (postanovka)ga alohida urg'u berish talab etiladi. Postanovka – ijro jarayonini to'g'ri tashkil etish, cholg'u sozlarini o'rgatishda hamda sifatli ovoz chiqarilishini ta'minlash uchun tana holatini to'g'ri tutish va cholg'uni o'ziga mos joylashtirish orqali amalga oshiriladigan jarayondir. Ya'ni bunda o'qituvchi nafaqat cholg'u sozini ijrosiga e'tibor qaratishi, balki o'quvchining to'g'ri tana holatini shakllantirishi ham lozim. Dutor cholg'usida uchta asosiy tayanch nuqta mavjud bo'lib, bular o'ng oyoq, o'ng qo'lning tirsak qismi va o'ng biqin sohalari hisoblanadi [4].

Jumladan, dutor cholg'usi misolida ko'rib chiqilsa, dutor ijrochiligi ikki yo'nalishda – an'anaviy va xalq cholg'ulari bo'limlarida o'qitilib, o'ziga xos ijro uslublari bilan farqlanadi. Masalan, dutor prima, alt, bas, kontrabas cholg'ulari xalq cholg'ulari bo'limida qo'llanilib, asosan xalq kuylari, qardosh xalqlar kuylari, Yevropa asarlari, konsert va fantazyalar ijro etiladi, an'anaviy cholg'u sinflarida esa maqom asarlari va milliy kuylar ijro etiladi. Bundan ko'rinib turibdiki, dutor o'qituvchilariga qo'yiladigan talablar ham ikki yo'nalishda amalga oshiriladi. Bular quyidagicha:

- an'anaviy ijro uslublari – asosan ustoz-shogird an'anasini yaxshi o'zlashtirish va uning fazilatlarini saboq jarayonida shakllantirish orqali amalga oshiriladi;
- xalq cholg'ularida esa zamonaviy ijro uslublariidan foydalanish yetakchilik qiladi.

An'anaviy ijro uslublari shashmaqomning o'ziga xos ohanglari, ritmik xususiyatlari, doira usullari, she'riyat va ashula yo'llarining o'zaro bog'liqligiga asoslangan qoidalar o'z aksini topsa, zamonaviy ijroda maxsus belgilangan shtrixlar, aniq ritmik usullar va takomillashgan cholg'ular uchun ishlab chiqilgan metodlardan foydalaniladi. Dars jarayonlarida ham ikki yo'nalish alohida o'rgatiladi.

Ushbu ikki uslubning o'ziga xos ijobiy hamda salbiy jihatlari mavjud. Masalan, ustoz-shogird metodida:

- o'quvchi ustoziga bevosita taqlid qiladi;
- maxsus o'quv dasturlari mavjud bo'lmaydi;
- ijroni eshitish va eslab qolish darajasi yuqori bo'ladi;
- ichki sezgi yaxshi rivojlanadi;
- ijro jarayonida milliy ohang va maqom uslublari sezgisi aniq shakllanadi;
- maxsus sinf xonalari mavjud bo'lmagani sababli o'quvchi faqat ijro imkoniyatini rivojlantiradi;
- o'qituvchi har bir shogird bilan individual tarzda shug'ullanadi;
- mashg'ulot davomida sabr, intizom va hurmat rivojlanadi [7].

Hozirgi kunda BMSMlarda asosan xalq cholg'ulari bo'limi kesimida o'quvchi darsga kelganidan boshlab nota tushunchasi haqida ma'lumot beriladi. Nota haqidagi ilk tushunchalar o'quvchi xotirasida uzoq muddatga muhrlanadi. Nota tushunchasi akademik ijroning asosi hisoblanadi. Biroq zamonaviy pedagogikada an'anaviy va zamonaviy metodlarning integratsiyasi keng qo'llanilishi o'quvchilar bilimini oshiradi. Masalan, o'zbek xalq



kuylarini an'anaviy tizimda o'rgatish asosan eshitish orqali amalga oshirilgan bo'lsa, hozirda ular notalashtirilgan holda akkompanement bilan birgalikda ijro etiladi. Jo'rnavoz bilan ijro etilgan asar yakka ijrochilikka nisbatan qiziqarli va samaraliroq bo'ladi. Tinglovchilarda ham o'quvchi, cholg'u va musiqiy asar haqida kengroq tasavvur shakllanadi.

Har bir mashhur ijrochining o'z maktabi mavjud bo'lib, bu maktablar yillar davomida to'plangan ilmiy va amaliy tajribalar asosida shakllangan. Bularga misol tariqasida Orif Qosimov, Turg'un Alimatov, N. Vasilev, Yunus Rajabiy ijro maktablarini keltirish mumkin ^[5]. Ushbu maktablar nafaqat ijro yo'llari, balki pedagogik yondashuvlari bilan ham farqlanadi. Mukammal pedagog bu maktablarning pedagogik yondashuvlarini bilishi zarur, chunki ular o'quvchilarning ruhiyatiga turlicha ta'sir ko'rsatadi.

Biroq an'anaviy va zamonaviy metodlarni integratsiyalash ayrim muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Jumladan, nazariy bilim va amaliy ijrochilik o'rtasida muvozanatni saqlash, individual yondashuvni shakllantirish, postanovka masalalari, faqat nota bilan ishlash natijasida eshitish qobiliyatining pasayishi yoki aksincha, faqat eshitish asosida o'qitish natijasida nota savodxonligining sustlashishi, o'quvchini faqat bitta cholg'u bilan cheklab qo'yish kabi muammolar kuzatilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida sanab o'tilgan muammolarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida hal etish, dars jara-yonlarini o'quvchilarning psixologik xususiyatlariga mos va qiziqarli tarzda tashkil etish zarur. Bolalar musiqa va san'at maktabiga 1-sinfga kelgan o'quvchini yangi muhitga moslashtirish, uni san'at olamiga bosqichma-bosqich jalb etish orqali kelajak faoliyatini to'g'ri yo'naltirish, ota-onalar bilan muntazam hamkorlikni yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, o'quvchilarda milliy cholg'ularga bo'lgan qiziqishni oshirish maqsadida motivatsion va trening faoliyatlarini kengroq joriy etish, o'quvchini ta'lim jarayonining faol subyekti sifatida jalb etish, yangi pedagogik metodlardan foydalanish orqali ularning darslarga bo'lgan qiziqishini oshirish va ijodiy intilishini kuchaytirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-112-son qarori: <https://lex.uz/uz/docs/-5849580>
2. G. Muhammedova. "Dutor". BMSM o'quvchilari uchun o'quv-uslubiy qo'llanma. T., 2014.
3. I. Toshpo'latova. "An'anaviy cholg'u ijrochiligi (dutor)". Musiqa nashriyoti, T., 2018.
4. U. Yunusov. "Xalq cholg'ularida ijrochilik". Dutor. Musiqa nashriyoti, T., 2021.
5. M. Ziyayeva. "Dutor (F. Sodiqov ijro uslubi)". T., 2008.
6. A. Tashmatova. "Ijrochilik san'ati tarixi". T., 2018.
7. D. Soipova. "Musiqa o'qitish nazariyasi va metodikasi". O'quv qo'llanma. T., 2009.
8. N. Nazirullayeva. "O'quvchilarga dutor ijrochiligini o'rgatishda an'anaviy va zamonaviy metodlar integratsiyasi". Maqola. Ilm-fan xabarnomasi jurnali. <https://worldlyjournals.com/index.php/Yangiizlanuvchi/article/view/22295>
9. <https://lex.uz/uz/docs/-5849580?ONDATE=04.12.2024>
10. <https://www.wikipedia.org>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №4(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.